O'zbekistonda tabiiy-geografik, iqtisodiy va ijtimoiy-demografik, aholi migratsiyasi va boshqa turli sharoitlarning mavjudligi bu respublikada mintaqaviy siyosat yuritilishini taqozo etadi. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mintaqalarning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik taraqqiyotida aholi, xususan inson omili masalasi, uning turmush tarzini hisobga olish davlat siyosatida ustuvor vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "...mamlakatimiz iqtisodiy qudratining o'sishi, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga, ayniqsa, qishloq joylarda bunga erishish – avvalambor, mamlakatimiz hududlarining kompleks va izchil rivojlanishi bilan belgilanishini yaxshi tushunamiz. Bu – bizning ham yaqin, ham uzoq muddatli istiqboldagi

vazifamizdir”.

Darhaqiqat, respublikaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mutaxassis olimlar tomonidan viloyat yoki viloyatlar darajasidagi ma’muriy-hududiy birliklar sifatida 6 ta mintaqaga ajratadilar: Toshkent (Toshkent shahri va Toshkent viloyati); Mirzacho‘l (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari); Farg‘ona (Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlari); Zarafshon (Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari); Kuyi Amudaryo (Xorazm viloyati va QQR); Janubiy (Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari) mintaqalardir.

Tarixan O‘zbekiston tug‘ilish darajasi va aholining tabiiy o‘sishi yuqori bo‘lgan mamlakatlar jumlasiga kiradi. Aholi sonining jadal ko‘payib borishi azaldan O‘zbekistonga xos xususiyat bo‘lib kelgan. Masalan, 1991 yili Respublika aholisi soni 20607,7 nafarga, 2011 yilda 28453,8 ming kishiga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib esa, bu ko‘rsatkich 32120,5 ming kishidan ortib ketdi (1 - ilova). Tarixan qisqa bo‘lgan shu davr ichida mamlakat aholisi qariyib 12 million kishiga yoki 55,9 foizga ko‘paydi. Binobarin, O‘zbekistonda 1991-2016 yillarda aholi soni o‘sish sur’ati 153,2 foizga, o‘rtacha yillik ko‘payish 1,7 foizni tashkil etdi. Tadqiq etilayotgan yillarda tug‘ilish va tabiiy ko‘payish darajasidagi pasayish hamda migratsiya oqimining manfiy ko‘rsatkichlari oqibatida, Respublika aholisi o‘sish sur’ati keskin kamaydi. Jumladan, mamlakat aholisining o‘rtacha yillik ko‘payish 1990-1995 yillarda 2,15 foiz, 2010-2015 yillarda 1,70 foizga teng bo‘lgan holda, muntazam pasayib bormoqda. Mamlakat qishloq aholisi soni va salmog‘i qator yillarda katta ko‘rsatkichlarni tashkil etgan bo‘lsa ham, uning o‘rtacha yillik ko‘payishi sur’ati yildan-yilga muntazam qisqarib borish kuzatiladi. Albatta, aholi orasida serfarzandlikka moyil bo‘lgan o‘zbeklar va mahalliy millat vakillarining ko‘pchilikni tashkil etishi, o‘zbeklar e’tiqod qiladigan islom dini ham, asrlardan beri shakllanib kelgan urf-odatlar ham ko‘p bolalikni qo‘llab-quvvatlaydi. Xalqimizning nikohni muqaddas deb hisoblashi va oila qurib, farzand ko‘rishga intilishi o‘zbek oilalarida tug‘ilishning yuqori darajada saqlanib qolishiga olib keluvchi omillardandir. Aholining soni, ko‘payishi va uning tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish, migrantsion harakat kabi demografik jarayonlarning turli jihatlarini ham

e'tiborga olish talab etiladi. Chunonchi, respublika hududlari murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardan tashkil topgan edi. Bu jarayon aholining demografik vaziyatida bevosita ko'zga tashlanadi. Zero, mamlakatning har bir mintaqasi o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy islohotlarning borishi, geografik joylashuvi, tabiiy shart-sharoiti, ishlab chiqarishi hamda demografik salohiyati, jumladan aholi zichligi, ular rivojlanishini ta'minlovchi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi.

Respublika mintaqalarida ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi o'zgarishlar samarali amalga oshirilmoqda, iqtisodiyotda har qaysi subyektning imkon qadar ko'proq manfaatdor bo'lishi ta'minlanmoqda, qo'shimcha rag'batlantirishlarga e'tibor qaratilmoqda, aholini ijtimoiy himoya qilish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Ammo so'nggi paytlardagi inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarini qamrab olayotgan global ahamiyatga ega muammolar va uning oqibatlarini his qilish, aholi demografik qarashlarini belgilashga xizmat qilmoqda. Bunday demografik xususiyatlar aholi ma'lumoti, madaniy-ma'naviy bilim darajasi bilan uyg'unlashgan holdagina ijobiy natijalar berishi aniqlanmoqda.

Mintaqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq iqtisodiy jihatdan o'zini tiklab, iqtisodiy barqarorlikka erishgan edi. Aholi turmush darajasi yaxshilana bordi, daromadlar ko'rsatkichi ortdi, unda moddiy jihatdan ahvolning ijobiy tomonga o'zgarishi, turmush darajasi yuksalishi o'n yildan so'ng, ya'ni 2005 yildan "demografik barqarorlik"ka yoki barqaror demografik o'sishga erishuviga, o'z aksini topdi. Bu davr xususida ayrim xorijiy manbalarda ta'kidlanishicha, 2005 yil 13 mayda bo'lib o'tgan ekstremistik guruhlar tomonidan uyushtirilgan "Andijon voqealari" chog'ida 500 dan ortiq begunoh insonlar qurban bo'lgan. Biroq, aniq ma'lumotlarga ko'ra, ushbu voqealar natijasida 180 dan ziyod kishi qurban bo'ldi, ulardan 32 nafari harbiylar va militsiya xodimlari edi. Bo'lib o'tgan voqeliklar Farg'ona vodiysi demografik holatiga umuman ta'sir ko'rsatmagan. So'nggi yillardagi tug'ilish ko'rsatkichidagi o'zgarishlar esa, demografik salohiyatning o'sishi bilan bog'liq bo'lib qoldi.

Mamlakatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni

modernizatsiyalash sharoitida har bir mintaqaning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik taraqqiyotida aholi, xususan inson omili masalasi, salohiyati va salmog‘ini hisobga olish ustuvor vazifalardandir. Aholining soni, ko‘payishi va uning manbalari, ya’ni tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish, mexanik harakat kabi demografik jarayonlar mavjudki, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida mazkur jihatlarni hisobga olishga to‘g‘ri kelmoqda. Har bir mintaqqa murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardan tashkil topgan , ularning rivojlanishi aholining demografik vaziyatida, aholi turmush tarzida bevosita aks etmoqda. Zero, mamlakatning samarali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi mintaqaning o‘ziga xos geografik joylashuvi, tabiiy shart-sharoit va resurslari, ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishi hamda demografik vaziyati, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan aniqlanadi. Shu bois, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga qaratilgan beshta muhim tamoyilning to‘rtinchisida: “...demografiya sohasidagi real ahvolni aholining mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o‘tish bilan bir qatorda odamlarni ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni oldindan amalga oshirish kerak. Ijtimoiy himoyalash va kafolatlarning kuchli ta’sirchan mexanizmi mavjud bo‘lgandagina ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlagan holda bozor iqtisodiyoti sari tinimsiz rivojlanib borishni ta’minalash mumkin” ligi ta’kidlangani bois, bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan deyish mumkin.

Iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar, mulkchilikning davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiy lashtirish jarayonining boshlanishi, uning erkin raqobatga asoslanishi, aholi turmush sharoitidagi buzilishlar, ishsizlik muammosi kabi holatlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamning mavjudligida va oilalarning ijtimoiy-demografik rivojlanishida bevosita ko‘zga tashlanar edi.

O‘zbekistonda jamiyatni modernizatsiya qilish davrida mavjud demografik vaziyatni hisobga olish, aholi, uning dinamikasi va tarkibi, mehnat resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi hamda ularning iqtisodiyot tarmoqlarida bandlik darjasи va tarkibini o‘rganish, kun sayin ko‘payib borayotgan ishchi kuchidan samarali foydalanishni ta’minalaydigan chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni tahlil etish,

hududiy o‘rganishni zamonning o‘zi talab etmoqda. Ayniqsa, aholi soni va zichligi jihatidan hamda mehnat resurslari masalasi murakkab bo‘lib kelayotgan Farg‘ona mintaqasida ushbu muammoning yechimini topish uchun aholi dinamikasini, tarkibini chuqurroq tahlil etish nihoyatda muhim sanaladi. Aholi sonining yuqori sur’atlar bilan ko‘payib borishi mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Xususan, mamlakatda o‘ziga xos demografik xususiyatlarga ega bo‘lgan hududlardan biri Farg‘ona mintaqasidir. Bu yerda demografik sig‘im o‘ta yuqori bo‘lib, bu mintaqada aholi qadimdan zich yashab kelgan, sug‘oriladigan yer va mineral xom ashyo resurslari cheklangan, ishlab chiqarish va infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan hamda o‘ziga xos ekologik muhit mavjud bo‘lgan. Hududdagi bunday o‘ziga xos xususiyatlar mintaqaviy siyosat tizimining shakllanishiga kuchli ta’sir o‘tkazmoqda. Yuqoridagi muammo va vazifalarni o‘rganish fannning maqsad va vazifalaridan hisoblanadi.

## **1.2. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi**

Tug‘ilish va o‘limning kamayishi aholi o‘rtacha umr ko‘rish muddatining uzayib borishi esa aholi sonining kamayib ketishiga, aholi tarkibida qariyalar (65 yosh va undan katta) salmog‘ining oshib, bolalar salmog‘ining kamayishiga olib keladi. Bunday holni demografiyada "aholining qarishi" deb ataladi. Qaysi bir hudud yoki davlat aholisi qari borsa, shu joyda ishlab chiqaruvchi ishchi kuchi bilan ta’minlash, millatni kamayib borishi kabi insoniyat taqdiri uchun tahlikali demografik muammolar yuzaga keladi. Mazkur ma’ruzada demografik vaziyat va uni ifodalovchi asosiy jarayonlar dunyo va uning alohida hududlaridagi demografik vaziyat va muammolar yoritiladi. Ma’ruzanini tayyorlashda aholi tabiiy o‘sishiga doir ilmiy manbalar, demografik ko‘rsatkichlar, BMT va boshqa nufuzli tashkilotlarning ma’lumotlaridan foydalanildi.

Fan doirasida adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga: sovet davri, mustaqillik davridagi va xorij nashrlariga bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruh adabiyotlarida sovet davrida yaratilgan ilmiy asarlarda

respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, demografik jarayonlari haqida ma'lumotlar berilgan. Masalan, O'zbekistondagi demografik jarayonlar va uning o'ziga xos xususiyatlari geograf, demograf va iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan Jumladan, Ahmedov E., Fayziyev N. Dunyo aholisi va insoniyat kelajagi. – Toshkent, 1969. –39b.; Ata-Mirzayev O., Katanov I. Farg'ona vodiysi shaharlari (demografiya to'g'risida ba'zi fikrlar).– Toshkent, 1970. –32b. Ahmedov A. Namangan oblastining buguni va ertasi. – Toshkent, 1974. –15b.; Ubaydullayeva R. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari.- Toshkent: O'zbekiston, 1977. –30b. Mullajonov I. Demograficheskoye razvitiye Uzbekskoy SSR. – Tashkent, 1983. - 278 s.; Karaxanov M., Qayumov A. O'zbekistonning demografik va aholi geografiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 1984. –32 b. Aliakberova N.M., Goldfarb N., Ergashev A. Razmesheniye naseleniya Ferganskoy dolini (demograficheskiy aspekt). – Tashkent, Fan, 190. -100 s.

Shuningdek, bu davrga xos xususiyatlarni yoritishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ham olib borilgan. Tadqiqotlardagi tarixiy ma'lumotlar muhim, biroq ularning aksariyatida sovet davri mafkurasi nuqtai nazaridan bir tomonlama yondoshilgan, mavjud kamchilik va muammolar xususida fikr yuritilmagan bo'lsada, hududlarning mazkur davrdagi demografik vaziyati haqida tasavvurga ega bo'lish hamda hozirgi kun bilan solishtirish, qiyosiy taqqoslash imkonini beradi.

Ikkinchi guruhg'a mustaqillik yillarda chop etilgan ishlar kiritilgan bo'lib, ular manbalarga boyligi, ilmiy jihatdan chuqur tahlili bilan alohida ajralib turadi. O'zbekistonda demografik jarayonlar va aholishunoslik masalalari bilan shu paytga qadar iqtisodchi va geograf olimlar, etnograf va demograflar ya'ni, Maksakova L.P. Migratsiya naseleniya Respublikni Uzbekistan. – Tashkent:Eldinur, 2000. – 115 s.; Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarda. – Toshkent:Ibn Sino nomli nashriyot, 2002. – 224 b.;Saliyev A. Problemi rasseleniya i urbanizatsii v respublikax Sredney Azii.– Tashkent:Fan, 1991. – 112 s.; B.Qodirov. Farg'ona mintaqasi aholisi va mehnat resurslari. – Toshkent: Navro'z, 2016.–168 b. Raxmatillayev X., Farg'ona vodiysi aholisining etnodinamikasi.(XIX asr oxiri - XX oxiri). - Toshkent: Yangi nashr, 2013. – 108 b. Bo'riyeva

M.O'zbekistonda oila demografiyasi. – Toshkent: Universitet, 1997. – 183 b.; Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010, 276 b.lar shug'ullanib kelganlar. Masalan, mazkur tadqiqotlarda respublika aholisi migratsiyasi sotsiologik tadqiqot materiallari asosida yoritib berilgan. Respublikadagi migratsiya holati, aholining zichligi muammolari ham bayon etilgan. Shuningdek, shaharlar to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan.

So'nggi yillarda tarixchilar ham mazkur masalani tarixiy nuqtai nazaridan o'rghanishga kirishib, bir qator tadqiqot ishlarini olib bordilar. Respublikaning demografik muammolarini tadqiq etishga yangicha ilmiy-amaliy yondoshuv natijasida tadqiqotchilarning fanlararo hamkorligining yorqin namunasi hisoblangan monografik tadqiqotlarida respublika aholisi sonining o'sish tendensiyasi va uning o'zgarishi, bandlik muammolari hamda millatlararo munosabatlar masalasiga tarixiylik, demografik, sotsiologik nuqtai nazaridan qaralgan. Demografik vaziyat va u bilan bog'liq masalalar tarixchilar tomonidan ham alohida tadqiq etilgan. D.Bobojonova va R.Murtazayevalarning ilmiy tadqiqotlarida(Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliyev A. Istoriko-demograficheskiye ocherki urbanizatsii Uzbekistana. – Tashkent:Universitet, 2002. – 125 s.; Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R. Mejnatsionalnaya tolerantnost v Uzbekistane: istoriya i sovremenost. – Tashkent:Universitet, 2004. – 179 s.; Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R. Uzbekistan mnogonatsionalniy istoriko-demograficheskiy aspekt. – Tashkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 252 s.; Bobojonova D. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivojining ijtimoiy-iqtisodiy omillari. – Toshkent: Fan, 1994. – 24 b.; O'sha muallif. O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning xususiyati. – Toshkent: Fan, 1995. – 94 b.; O'sha muallif. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Sharq, 1999. – 160 b.; Murtazayeva R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. – Toshkent: Universitet, 2007. – 184 b.; O'sha muallif. Tolerantnost kak integriruyushiy faktor v mnogonatsionalnom Uzbekistane. – Tashkent: Uzbekistan, 2010.–152 s. Abdullayev Sh.M. Etnosotsialniye i etnopoliticheskiye protsessi v Ferganskoy doline. (Osnovniye

problemi, tendensii i protivorechiya. 70-80-ye godi XX v.) Diss. ...dokt. ist. nauk. – Tashkent, 1994. – 340 s.; Bobojonova D.B. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari (70-80 yillarning o‘rtalari). Tarix fan.dok... diss. – Toshkent, 1998. – 294 b.; Musayev O.R. Mejnatsionalniye otnosheniya v Respublike Uzbekistan (1991-1997). Avtoref. diss. ... kand. ist. nauk. – Tashkent, 2000. – 28 s.; Rahmatullayev Sh.M. Mustaqillik sharoitida Farg‘ona vodiysi shaharlarida ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar (1991-1996 yy.). Tarix fan. nom. ...diss. – Toshkent, 2000. – 200 b; Yunusova X.E. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar (XX asrning 80-yillari misolida). Tarix fan.dok... diss. – Toshkent, 2009. – 296 b.) O‘zbekistonda demografik jarayonlar, aholining hududiy joylashuvi va migratsion jarayonlar, bag‘rikenglik tamoyilining tarixiy jihatlari tahlil etilgan.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha alohida fundamental tadqiqot yaratilmagan bo‘lsada, Demografik jarayonlari, millatlararo munosabatlar kabi masalalarning ba’zi tomonlari qisman yoritilgan. Bu dissertatsiyalar XX asrning oxirgi choragi davomida respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz bergen tarixiy o‘zgarishlar haqidagi fikr va tasavvurlarni yanada kengaytirish imkonini beradi. Sovetlar davrining so‘nggi va mustaqillikning dastlabki yillari tarixiy o‘zgarishlarining demografik jarayonlarga ta’siri qiyosiy taqqoslangan, Respublika aholisining etnik tarkibi shakllanishi va etnomadaniy munosabatlar tarixi ochib berilgan tadqiqot ishlari ham mavjud. Ularda viloyatlardagi urbanizatsiya va demografik jarayonlar xususida ham fikr yuritilgan, ularning millatlararo munosabatlarga ta’siri masalasi qisman o‘rganilgan.


R.Shamsutdinov va A.Ishoqovlarning Andijon viloyati tarixiga oid asarida ham amaliy ahamiyatga molik hujjatli materiallar keltirilgan. Yuqorida kayd etilgan asarlarda katta va kichik shaharlariga tavsif bilan bir qatorda, etnik jarayonlar va demografik holat haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lsada, mustaqillik yillarida mazkur hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari to‘la ko‘rsatib berilmagan.

Uchinchi guruhsiga tegishli adabiyotlarga xorij nashrlari kiradi. Xorijiy

tadqiqotlarda(Friedman J., Wulf J. World city Formation: an agenda for research and action // International Journal of Urban and Regional Research, 1982.–P. 309–344.; Logan S.R., Molotch H.L. Urban Fortunes: The Political Ecology of Place. – Berkeley. 1987. – 159r.; Gottman J. Megapolis. <http://lib.socio.msu.ru>; 1991. – 24 r.; Sassen S. The Global City: New York, London, Tokyo.–Princeton: Princeton University Press, 1991. – 214p.) sovet davlati tarixining so‘nggi davrlariga oid masalalar yoritilgan. Mazkur ishlarda jahondagi migratsiya, urbanizatsiya jarayonlari tahlil etilgan. Ushbu tadqiqotlarda bevosita O‘zbekistondagi demografik jarayonlarning millatlararo munosabatlarga ta’siri masalasi yaxlit holda o‘rganilmagan, biroq, dunyo shaharlarining yiriklashib borishi va bu jarayonning jahon iqtisodiyotiga ta’siri asoslاب berilgan.

Umuman olganda, O‘zbekistonda demografik jarayonlar, aholishunoslik masalalarini o‘rganish yangi yo‘nalish bo‘lib, keyingi davrda tarixchi olimlar ham tarixiy nuqtai nazardan o‘rganishga kirishdilar. Biroq, mavzu tarixshunosligi tahliliga ko‘ra, o‘tgan yillar davomida demografik vaziyat va uning millatlararo munosabatlarga ta’siri masalasi kompleks tarzda o‘rganilmagan.

### **“O‘zbekistondatarixiy-demografik jarayonlar” fanini o‘rganishda fanlararo aloqadorlik**



## **Nazorat uchun savollar va test topshiriqlari**

1. O‘zbekistonning mehnat resurslari kartasini tahlil qiling va har bir viloyat bo‘yicha mehnat resurslarining taqsimlanishini tahlil qiling.
2. O‘zbekistonda migratsiya ko‘rsatkichlari qanday?
3. O‘zbekiston aholisining o‘sishi grafigini chizing.
4. O‘zbekiston aholisining qancha qismi har bir viloyat bo‘yicha qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida band ekanligini izohlang.
5. O‘zbekistonda Mustaqillik yillarda vujudga kelgan shaharlar va shaharchalar ro‘yxatini tuzing.

**2-mavzu: “O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlari.(2 soat)**

### **REJA:**

1. O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
2. Uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlari

**Tayanch so‘zlar:** davlat-tuzumi, Ishlab chiqarish xo‘jaligiga, sivilizatsiya, aholini ro‘yxatga olish, Konsepsiya, Prezident Farmoni, prognozlar, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, maqsadli dasturlar.

## **1.1. O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.**

Mustaqil O‘zbekiston mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro‘y bergan o‘zgarishlar aholi turmush tarzi va umuman demografik jarayonlarga ham o‘za’sirini o‘tkazmay qolmadi. Boshqa mintaqlardan farqli xususiyati ham ushbu jarayonlarda ko‘proq namoyon bo‘ldi, ya’ni aholi sonining o‘sish sur’ati hamda tug‘ilish va o‘limning kamayishi, aholi zichligi va joylashuvining o‘zgarishi, yosh va jins tarkibidagi mutanosiblik, o‘rtacha umr ko‘rish darajasining ortishi, nikoh va ajralishning sekinlashuvi, mehnatga layoqatlilar salmog‘ining ortishi, migratsiya jarayonining faollashuvi bilan izohlanadi. Boshqa mintaqalardagi singari shahar va qishloqlari aholisi 1996 yildayoq o‘zlarini iqtisodiy jihatdan tiklab, ijtimoiy farovonlik va barqarorlikka erishdi. Aholi turmush darajasi yaxshilana bordi, daromadlar ko‘rsatkichi ortdi, unda moddiy jihatdan ahvolning ijobiy tomonga o‘zgarishi, turmush darajasi yuksalishi o‘n yildan so‘ng, ya’ni 2005 yildan turmush darajasi yuksalgan, barqaror demografik o‘sishga erishganligi bilan ko‘zga tashlandi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish va faol demokratik yangilanishlar sharoitida mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatining tarkib topishi, nafaqat ishlab chiqarishning o‘sishiga, balki yildan-yilga soni tobora ortib borayotgan aholining turmush darajasini ko‘tarishda ham muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni chiqishiga nima uchun zauriyat tug‘uldi?

So‘nggi yillardagi tug‘ilish ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar, iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mintaqaning tabiiy shart-sharoit va resurslari, ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishi, mulkchilikning davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiylashtirish jarayonining boshlanishi va uning erkin raqobatga asoslanishi, aholi turmush sharoitida ijtimoiy-moddiy negizlarning buzilishi, kam ta’minlanganlik, ishsizlik

muammosining keskinlashuvi kabi holatlar aholi ijtimoiy turmush tarzida bevosita aks etdi. Shahar aholisining umumiy aholi dinamikasiga ta'siri katta bo'ldi, chunki mintaqada urbanizatsiya darajasi past bo'lib, milliy tarkibda mahalliy millat vakillarining ko'pligi sababli shaharlarda tug'ilish darajasi ham yuqori edi, bu esa qishloqlarga nisbatan farq unchalik katta emasligini ko'rsatadi. Vodiyda tug'ilish va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari Namangan viloyatida eng yuqori, Farg'ona viloyatida esa aksincha, past bo'lib kelgan, Andijon viloyati o'rtacha o'rirlarni band etib kelgan, bunga iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish katta ta'sir etadi. Yaqin keljakda tabiiy o'sish sur'atlariga bog'liq holda aholi soni o'sib borsa-da, lekin uning dinamikasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmaydi, ya'ni, u mo'tadil tadrijiy ravishda o'sib boradi. Ma'lum bir hududda yashovchi aholi o'zining tabiiy, mexanik va ijtimoiy harakatlari natijasida miqdori hamda tarkibini yangilab boradi. Aholi dinamikasida tabiiy o'sish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy ko'payish asosida davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati, xususan, oziq-ovqat, bolalar nisbati, kiyim-kechak, uy-joy, ishchi o'rirlari, kommunal-xo'jalik va boshqa shart-sharoitlar aniqlanadi, shuning asosida istiqboldagi aniq rejalar ishlab chiqiladi. Tabiiy ko'payish darajasining yuqori miqdorda bo'lishi aholi sonining tez ko'payishiga sabab bo'ladi. Bunday holat o'z-o'zidan tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlariga, aholining jinsiy, yosh, milliy va hududiy tarkibiga, ijtimoiy-iqtisodiy hamda demografik omillarga bog'liq bo'ladi. Muayyan davr ichida sodir bo'lgan tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari orasidagi farq aholining tabiiy o'sishini keltirib chiqaradi. Aholining tabiiy o'sishi deganda aholining tug'ilish va o'lim o'rtasidagi tavofut tushuniladi. Bu ko'rsatkich ham demografik koeffitsiyentlar singari promilleda ifodalanadi. Aholi tabiiy o'sishi ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida dunyodagi mamlakatlarda aholining o'sish yoki kamayish holati haqida ma'lumotlar olish, uning negizida esa keljak rejalarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Bu jarayonda aholi tabiiy o'sishini muayyan davrlar bo'yicha hisoblash kerak.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ham aholining tabiiy ko'payishida ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mamlakat mustaqillik tarixining dastlabki 27 yillik

demografik holatida bu yorqinroq namoyon bo‘ladi. Misol uchun, 1991 yilda respublika hududlarida tabiiy ko‘payish har ming aholiga 28,3 % (promille)\*ni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib, 17,9 promillega teng bo‘ldi Tug‘ilish koeffitsiyenti esa 34,5 promilledan 22,8 promillegacha qisqardi. Mazkur yillar davomida tug‘ilish darajasining pasayishi nafaqat shahar aholisi, balki qishloq aholisi o‘rtasida ham kuzatiladi. Keyingi o‘n yillikda respublika aholisi o‘sish sur‘atining keskin kamayishi, buning natijasida aholi mutlaq soni o‘sishining kamayishi, tug‘ilishning va tabiiy ko‘payishning pasayishida va migratsiya oqimining manfiy ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘lmoqda. Chunonchi, bozor iktisodiyotiga o‘tish sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar aholining yosh, jins va milliy tarkibi, tug‘ilish koeffitsiyentida ham o‘z ifodasini topgan. Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, oilalarda tug‘ilgan farzandlar soni katta avloddan yosh avlodga o‘tib borgan sari asta-sekin kamayib borgan. Mavjud ekologik va boshqa muammolar ta’sirida bir yoshgacha bolalar o‘limi, ayollarning bandlik darajasi ham tug‘ilish ko‘rsatkichiga ta’sir etib kelgan.

## **2.Uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlari**

O‘zbekistonda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmono‘stlik, ezgulik, qalb sahovati va bag‘rikenglik o‘zbek xalqiga hamisha xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi. O‘zbek xalkining oliy maqsadi tarixiy, milliy, diniy an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol topishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

Tadqiqotchilar XX asr boshlarida o‘zbek xalqi tarkibida 3 ta yirik etnik guruhlar (subetnoslar) bo‘lganligi qayd etadilar. Tadqiqotchilarning ma’lumotiga ko‘ra XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududida o‘zbeklar 2,8 mln. Ga yaqin kishini tashkil etgan.

Har qanday mamlakatning taraqqiyoti va dunyodagi obro‘-e’tibori, avvalo,

shu el-yurtda qaror topgan tinchlik-osoyishtalikka, u yerda yashayotgan barcha millat va elat vakillarining totuvligiga bog‘liq. Shuning uchun ham, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik milliy mafkuramizning asosiy g‘oyalaridan biri ekaniga alohida urg‘u berib, Prezidentimiz shunday degan: “...mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko‘z qorachig‘idek saqlash hamda mustahkamlashni o‘zimning ustuvor vazifam, deb hisoblayman”<sup>1</sup>. Zero, yurtimizda vijdon va e’tiqod erkinligi, turli millat vakillarining huquqlari keng kafolatlanib, diniy bag‘rikenglik muhiti tobora mustahkamlanib bormoqda.

1992 yilda mamlakatimizda etnik o‘ziga xosligi, tili, urf-odat va an’analarni har tomonlama rivojlantirish va o‘zaro boyitish bo‘yicha teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lgan 136 millat va elat vakillari yagona oila bo‘lib, do‘stlik va inoqlikda hayot kechirayotgan respublika xalqining 78,0 foizini o‘zbeklar va 22,0 foizini boshqa millat vakillari tashkil etgan. Ular yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, Vatanimizni yanada ravnaq toptirish, uning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini oshirish maqsadida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlarni amalga oshirish yo‘lida o‘zlarining fidokorona mehnati bilan munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

El-yurt osoyishtaligi, tinchligi, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlik har qanday davlat ravnaqini, uning kelajagini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib kelgan. Shu boisdan ham, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda turli millatlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e’tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiylar mehnati bilan munosib hissa qo‘shib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar qonun oldida tengdirlar”, – deb belgilab qo‘yilgan. Bu esa ko‘pmillatli xalqimiz o‘rtasidagi totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash, mustaqil

O‘zbekistonda shakllangan zamonaviy demografik-transformatsion jarayonlarni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda. Xalqimiz qon-qoniga singib ketgan millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik mustaqillik yillarida yanada rivojlandi, uning huquqiy asoslari yaratilib, milliy siyosatda mustahkam o‘rnini topdi. Bu siyosatga hamda milliy g‘oya negiziga bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millatlarga mansub kishilar hayotida yaqqol ko‘rish mumkin.

Aholi iqtisodiy va ijtimoiy hayot qonuniyatlariga mos holatda tadrijiy o‘sib borar ekan, demografik jarayonlar ham muayyan ishlab chiqarish usuli va ishlab chiqarish munosabatiga bog‘liq tarzda rivoj topadi. Aholi murakkab ijtimoiy va tabiiy rivojlanish mahsuli bo‘lib, unga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu jihatdan iqtisodyot, sotsiologiya, geografiya, tibbiyot, tarix fanlari tahlili mavzuiga yaqin bo‘lib, ularning yutuqlaridan foydalanadi, ayni vaqtda, ularga muhim ma’lumotlar beradi. O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning keng hududlarida turli elatlarning ko‘chishi va aralashishi natijasida quyidagi tarixiy-madaniy birikmalar paydo bo‘lgan.

1. Yarim o‘troq ovchi-baliqchi elatlar
2. Daryo quyi oqimida va vodiylarda yarim o‘troq chorva-dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi
3. Sug‘orma va bahorgi yerlardagi omoch dehqonchiligi bilan chorvachilik xo‘jaliklari
4. Quruq iqlimli doimiy va yarim dashtlarda qisman dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchilar

Demografi( Demografiya yunoncha “demos” – xalq, “grafiya” – yozaman, ya’ni “xalq haqida yozaman” ma’nosini anglatadi. Demografiya fan sifatida uch yuz yil muqaddam shakllangan.) jarayonlarning shakllanishida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot hal qiluvchi o‘rin tutadi. Turmush tarzining yaxshilanishi, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatining yaxshilanishi demografik jarayonlarga ijobiy ta’sir etib, aholi sonini ko‘payishiga olib kelsa, urushlar, turli hil kasalliklar, iqtisodiy inqirozlar, ocharchilik va boshqa omillar o‘z xususiyatiga ko‘ra demografik jarayonlarda o‘z

salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Demografik jarayonlar – insonlarning hayotida ularning avlodlarini almashuvi bilan bog'liq bo'lgan voqealarning kechishidan iborat. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridagi demografik jarayonlar o'ziga xosligi bilan boshqa davrlardan farqlanadi. Respublika aholisining o'rtacha umr ko'rish darajasi so'nggi yigirma yil davomida 67 yoshdan 73,8 yoshga yetganining o'zi ko'p narsadan dalolat beradi. Jumladan, ayollarning umr ko'rishi 76,2 yoshga, erkaklar o'rtasida 71,4 yoshga yetdi.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga o'tishi uning demografik tarixida yangicha bosqichni boshlab berdi. Respublikada bozor munosabatlarining shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sharoitlarning o'zgarishi natijasida yangi demografik o'zgarishlar yuzaga keldi. Bu esa o'z navbatida ko'pmillatli bo'lgan respublikamizning millatlararo munosabatlariga o'z ta'sirini o'tkazdi.

1991 yili respublika aholisi 20607,7 mingga teng bo'lgan bo'lsa, 2019 yil 1 aprel holatida bu ko'rsatkich 33,3 mln kishidan ortib ketdi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab millatlararo totuvlik va bag'rikenglikka qaratilgan davlat siyosati olib borilmoqda. Bu siyosat turli millat vakillariga O'zbekistonda emin-erkin yashash uchun keng sharoitlar yaratib bermoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1992 yil 13 yanvarda Respublika Baynalmilal madaniy markazi tashkil etilganligida ko'rish mumkin. Mustaqil O'zbekiston aholisi 2018-2019-yillarda 28 mln kishini tashkil etadi

Jamiyatda sog'lom turmush tarzi, millatlararo totuvlik, o'zaro mehr-oqibat muhitini va dinlararo bag'rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash hamda ko'p millatli xalqimizning qadimiy urf-odatlarini asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishni, yosh avlod qalbi va ongida ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirishni o'z oldiga vazifa qilib Farg'ona vodiysi viloyatlarida milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va yanada rivojlantirish maqsadida olib borilgan ishlar o'z samarasini bermoqda. Jumladan, Andijon viloyati rahbariyati ko'p sonli jamoatchilik talabiga ko'ra, milliy ehtiyojlarni qondirish davr talabi ekanligini hisobga olib, viloyatda 5 ta, xususan, uyg'ur, koreys, arman, qirg'iz va rus milliy madaniy markazlari ta'sis etilgan. Bu

markazlar jamiyatimizda do'stlik-totuvlik, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu milliy-madaniy markazlardan biri viloyatda istiqomat qilayotgan Uyg'ur madaniy markazi O'zbekistonda 1989 yilda tashkil etilgan dastlabki milliy madaniy markazlardan biri bo'lib, Andijon viloyatida ham o'sha yili viloyat Adliya boshqarmasi tomonidan 1989 yilning oktabr oyida 078-sonli guvohnoma bilan ro'yxatdan o'tgan. Markaz o'z oldiga viloyatdagi uyg'ur millatiga mansub aholini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, tili va madaniyatini saqlash borasida belgilangan ish reja asosida madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish vazifasini qo'ygan. Shunga ko'ra, respublika va viloyat uyg'ur milliy madaniy markazining tashabbuslari bilan "O'zbekiston umumiyligi" shiori ostida ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib kelingan.

Mustaqillik yillarida ko'p millatli respublikaning barcha hududlarida o'ziga xos demografik rivojlanish xususiyatlari va millatlararo munosabatlar e'tiborga olinmoqda. Darhaqiqat, millatlararo totuvlikni ta'minlash O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ham millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining tashkil etilishi, shuningdek, 2019 yil 5 fevralda "O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilinishi aholi to'g'risida eng ishonchli manba toplashda katta ahamiyatga ega va ana shu ma'lumotlar asosida demografik jarayonlarning istiqbol rejasi ishlab chiqiladi. Respublikada aholisi demografik holati va uning millatlararo munosabatlarga ta'siri alohida atroflicha ilmiy tahlil etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2017 yil 19 maydag'i "Millatlararo munosabatlar va xorijiy

mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5046-son va 2019 yil 10 yanvardagi PF-5623-son PF-5623-son "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari hamda sohaga oid meyoriy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida dagi demografik jarayonlar va ularning millatlararo munosabatlarga ta'siri masalasini eng yangi tarix yo'nalishida ochib berdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston aholisining tabiiy ko'payishidagi hududiy tafovutlar, unga ta'sir etuvchi omillar, demografik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rghanish, jarayonlarning millatlararo munosabatlarga ta'siri, aholi milliy tarkibidagi o'zgarishlar, mahalliy millat vakillari salmog'ining ortib borishi, yuqori tabiiy o'sish va manfiy tashqi migratsiya mohiyatini ochib berish;

millatlararo munosabatlar ta'sirida demografik vaziyatning o'zgarishi, tashqi migratsiyaning aholi dinamikasi va turmush tarziga ta'sirini ko'rsatib berish;

aholi milliy tarkibida mahalliy millat vakillari salmog'i ortib borishining urbanizatsiya jarayonlarida hamda millatlararo munosabatlarda aks etishini tahlil qilish;

bozor munosabatlariga o'tish davrida aholini qo'llab-quvvatlash borasidagi ijtimoiy islohotlarning tub mohiyatini ochib berish fanning farmonidan kelib chiqadigan vazifalarini belgilab olindi.

Shuningdek, farmonda respublika aholisi milliy tarkibiga bog'liq holda tabiiy o'sishda hududiy tafovutlar, xususan demografik vaziyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini aniqlash;

kechayotgan demografik vaziyat hisobiga aholining yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar, urbanistik rivojlanishni millatlararo munosabatlari;

migratsiyaning faollashuvi ta'sirida O'zbekiston aholisi milliy tarkibida boshqa millat vakillari salmog'ining kamayishi, aksincha tub joy aholi sonining ortib borishi hisobiga tabiiy o'sishning ko'tarilganligining tahlili;

millatlararo munosabatlarning demografik jarayonlarga ta'siri (ko'p bolali oilalar kamayishi, kichik oilalarning ko'payishi natijasida aholi orasida keksalar

salmog‘i ortishi) aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzini yaxshilash bo‘yicha istiqbolli dasturlarda diniy bag‘rikenglik va tolerantlik tamoyillari, millatlararo munosabatlarning barqarorligi kabi jihatlarni o‘rganish vazifasi qo‘yilgan.

### **Nazorat uchun savollar va test topshiriqlari**

1. Aholini ro‘yhatga olish zaruriyati to‘g‘risida gapirib bering.
2. Ishlab chiqarish xo‘jaligiga o‘tish nima?
3. Yurtimizda urbanizatsiya jarayoni qanday kechmoqda?
4. Prezident farmoni haqida nimalarni bilasiz?
5. Prezident farmoniga nima uchun o‘zgartirishlar kiritilishi sabablari haqida nimalarni bilasiz?

**3-mavzu: Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish, barqaror rivojlanish Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish omillari. (2 soat)**

#### **REJA:**

1. Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish va barqaror rivojlanirish
2. Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish.
3. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida.

**Tayanch so‘zlar:**ish o‘rinlari, aholi bandligi, barqaror rivojlanirish, Milliy maqsadlar, indikatorlarini shakllantirish, mehnat resurslari, ilmiy tadqiqotlar, ishlab chiqarish usuli, mulkchilik iqtisodiy funksiyalar; ijtimoiy funksiyalar;

### **3.1. Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish va barqaror rivojlantirish**

O‘zbekistonda aholining zichligi hududlar bo‘yicha bir-biridan keskin farq qiladi. Aholining yashashi uchun tabiiy – iqlimiylar sharoiti qulay, tarixan o‘zlashtirilgan, dehqonchilik qilish uchun yer-suv resurslariga boy hududlarda hamda urbanizatsiya jarayonlari nisbatan rivojlangan, shaharlarga yaqin hududlarda aholi zichligi yuqori. Aksincha, respublika hududining 2/3 qismini egallagan cho‘l mintaqasida aholi juda siyrak tarqalgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martdagি 68-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma’muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroridagi talabga muvofiq urbanizatsiya masalasida mintaqalarda, jumladan Farg‘ona vodiysi shahar va qishloqlarida aholining taqsimlanishi bo‘yicha katta o‘zgarishlar sodir bo‘layotgani ma’lum bo‘ldi. 2015 yil 1 yanvar ma’lumotlariga ko‘ra, respublikada urbanizatsiya darajasi 50 foizdan oshgan bo‘lsa, bunday holat Farg‘ona vodiysi viloyatlari shaharlarda jami aholining 57,4 foizini tashkil qilgan. Shahar aholisi soni Andijon viloyatida 52,5 foiz, Farg‘ona viloyatida 57,0 foizni va Namangan viloyatida 63,4 foiz tashkil etdi.

Aholining o‘rtacha zichlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha respublika hududlarini shartli ravishda 5 ta guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin: Aholisi zich joylashgan hududlar birinchi guruhni tashkil etadi. Respublikada aholi zichligi eng yuqori bo‘lgan hudud Andijon viloyati bo‘lib, viloyatda 1 kv.km.ga 2016 yilda 676,9 kishi to‘g‘ri kelgan. Aholi zichligi bo‘yicha respublikada ikkinchi o‘rinda Farg‘ona viloyati turadi. Mazkur viloyatda zichlik 1 kv.km.ga 518,5 kishini tashkil etgan. Mazkur ikki viloyat o‘zida respublika aholisining 20,0 foizi yoki 6415,8 ming kishini jamlashga muvaffaq bo‘lgan.

Aholisi zich joylashgan hududlar ikkinchi guruhdan o‘rin olgan. Har bir kvadrat kilometrga 200-400 yuz kishi to‘g‘ri keladigan hududlarga Namangan (349,9 kishi), Xorazm (288,7 kishi), Samarqand (213,7 kishi) bo‘lib ularda jami respublika aholisining 7934,2 ming kishi yoki 25,1 foizi to‘g‘ri keladi.

Aholisi zichligi meyorida bo‘lgan hududlar uchinchi guruhni tashkil etadi. Aholining o‘rtacha zichligi 1 kv.km. 100-200 kishi to‘g‘ri keladigan hududlarga Toshkent (183,2 kishi), Sirdaryo (184,7 kishi), Surxondaryo (120,0 kishi) va Qashqadaryo (105,9 kishi) viloyatlarini o‘ziga qamrab oladi.Ushbu hududlarda respublika aholisining 28,6 foizi yoki 9021,8 ming kishisi to‘g‘ri keladi.

Aholisi siyrak joylashgan to‘rtinchi guruhni tashkil etib, ularda zichlik o‘rtacha 10-100 kishiga teng. Bular –Qoraqalpog‘iston Respublikasi (10,8 kishi) va Buxoro (45,0 kishi), Jizzax (60,2 kishi) viloyatlaridir. Ularga respublika aholisining 4882,4 ming kishi yoki 15,5 foizi to‘g‘ri keladi.

Aholisi o‘ta siyrak joylashgan hududlar beshinchi guruhdan o‘rin olgan bo‘lib, aholi zichligi 10 kishiga yetib-yetmaydi. Viloyatlar bo‘yicha bu guruhga birgina Navoiy viloyati kiradi, xolos. Respublika hududlari bo‘yicha aholining hududiy joylashuvidan eng past ko‘rsatkich Navoiy viloyatida kuzatiladi. “Eng kenja” viloyatda zichlik ko‘rsatkichi respublikaga nisbatan 8,4 marotaba kichik, ya’ni atigi 8,4 kishiga to‘g‘ri keladi.

Demak, respublikaning ayrim viloyatlari orasida aholi sig‘imi bo‘yi-cha farq juda katta. Masalan, Andijon viloyatidagi aholi zichligi Navoiy viloyatidan 82 barobar yuqori. Ayni vaqtida aholi hududiy jihatdan Andijon viloyatida Qoraqalpog‘iston Respublikasiga nisbatan 63 barobar, Buxoro viloyatiga nisbatan 15 barobar, Jizzax viloyatiganisbatan 11 barobar zich joylashgan.

Aholisi eng ko‘p joylashgan (1998 yildan buyon) Samarqand viloyati ushbu mintaqa tarkibidadir. O‘rganilayotgan davrda (2016 yil) aholini tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning o‘rtacha darajasi bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinda kuzatilib, aholisi tez o‘sib borayotgan hudud hisoblangan. Albatta, bunga sabab hududning o‘rtacha o‘lim ko‘rsatkichiga egaligidir. Aholi zichligi bo‘yicha Andijon, Farg‘ona, Namangan va Xorazm viloyatlaridan keyingi o‘rinni egallagan (293,7 kishi). Aholining qishloq joylarda tez ko‘payib borayotgani ham alohida ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarda mamlakatimiz demografik vaziyatidagi o‘zgarishlar Buxoro viloyatiga ham xosdir. YA’ni, aholi sonining o‘sish sur’ati keyingi yillarda pasayganligini ko‘rish mumkin. 2016 yilda 1843,5 ming kishi yashagan. Aholining

o‘rtacha tabiiy ko‘payish darajasi yildan yilga pasayib borishi natijasida o‘rganilayotgan davrda o‘rtacha tabiiy ko‘payish 18,7 promillega teng bo‘lgan, bu daraja Andijon, Farg‘ona viloyatlaridan 0,5 promille, Namangan viloyatidan 2,2 promillega kam demakdir. Buni tug‘ilish darajasining keskin kamayganligi va tashqi migratsiya bilan izohlash mumkin. Tug‘ilishning umumiy koeffitsienti bo‘yicha O‘zbekistonda 2000 -yilda tug‘ilish past Toshkent viloyatda kuzatilgan.

Aholi iqtisodiy va ijtimoiy hayot qonuniyatlariga mos holatda tadrijiy o‘sib borar ekan, demografik jarayonlar ham muayyan ishlab chiqarish usuli va ishlab chiqarish munosabatiga bog‘liq tarzda rivoj topadi. Aholi murakkab ijtimoiy va tabiiy rivojlanish mahsuli bo‘lib, unga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu jihatdan iqtisodyot, sotsiologiya, geografiya, tibbiyot, tarix fanlari tahlili mavzuiga yaqin bo‘lib, ularning yutuqlaridan foydalanadi, ayni vaqtda, ularga muhim ma’lumotlar beradi. O‘zbekistonlik aholishunos olimlar -Qoraxonov, Otamirzayev, Bo‘riyevalardir.

Demografik jarayonlarning shakllanishida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot hal qiluvchi o‘rin tutadi. Turmush tarzining yaxshilanishi, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatining yaxshilanishi demografik jarayonlarga ijobiy ta’sir etib, aholi sonini ko‘payishiga olib kelsa, urushlar, turli hil kasalliklar, iqtisodiy inqirozlar, ocharchilik va boshqa omillar o‘z xususiyatiga ko‘ra demografik jarayonlarda o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Demografik jarayonlar – insonlarning hayotida ularning avlodlarini almashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarning kechishidan iborat. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridagi demografik jarayonlar o‘ziga xosligi bilan boshqa davrlardan farqlanadi. Respublika aholisining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi so‘nggi yigirma yil davomida 67 yoshdan 73,8 yoshga yetganining o‘zi ko‘p narsadan dalolat beradi. Jumladan, ayollarning umr ko‘rishi 76,2 yoshga, erkaklar o‘rtasida 71,4 yoshga yetdi. “Kambag‘allik ko‘p bolalikka sharoit tug‘diradi.» degan fikr J. Graunt tomonidan aytilgan

O‘zbekistonning mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tishi uning demografik tarixida yangicha bosqichni boshlab berdi. Respublikada bozor munosabatlarining shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sharoitlarning o‘zgarishi natijasida yangi

demografik o‘zgarishlar yuzaga keldi.

Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida aholining bir viloyatdan ikkinchi viloyatga ko‘chishi birmuncha sekinlashgan bo‘lsada, ammo viloyat doirasida ko‘chish biroz faollashdi. Bunda aholining ichki hududiy harakatchanligi qishloq-shahar yo‘nalishidagi migratsiya oqimining ortishida namoyon bo‘ldi. Umuman olganda, nafaqat, viloyat ichida, balki viloyatlararo aholi migratsiyasida ham qishloq-shahar yo‘nalishidagi aholi harakatining jadallahuvi uning ma’lumotliligi, malakasi, kasbi hamda ish bilan ta’minlash kabi muammolarning hal etilishi bilan bog‘liq jarayondir.

Mustaqillik yillarida ichki migratsiya harakatlari va jami hajmi uning hamma asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha (ayniqsa, qishloq-shahar) keskin kamaydi. Mutaxassislarning fikricha, uzoq muddatli xarakterga ega bo‘lgan omillarning o‘zaro murakkablashuvi asosida yuzaga kelgan hamda bozor iqtisodiyotiga o‘tish o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Shu nuqtai nazardan davlat siyosati, migratsiyani qishloqdan shaharga yo‘naltirish emas, balki ushbu jarayonni kamaytirib, mumkin qadar to‘xtatishga qaratildi. Bu butunlay to‘g‘ri oqilona siyosat, chunki hozirgi paytda shaharlarda qishloq aholisi uchun vujudga kelgan shart-sharoit imkoniyatlari ancha yomonlashdi, chunki qo‘srimcha ishchi kuchiga talab kamaydi, ayniqsa 1990 - yillarning boshidan ishchilarga talab tizimida sifat ko‘rsatkichlari paydo bo‘lib, yuqori malakali mutaxassis kadrlarga talab kuchaydi. Qishloqlarda esa bunday talablarni qondirish imkoniyati yo‘q edi. Mustaqillik yillarida qishloq joylarda ham sanoat korxonalarining, ilm maskanlarining ko‘plab ochilganligi sababli mahalliy aholining qishloq yo‘nalishi tarmoqlaridagi bandligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilibgina qolmasdan, balki ishchi kuchi faoliyatining boshqa turlari va sotsial-maishiy infratuzilmalarning rivojlanishi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida qishloqdan shaharlarga ko‘chishni kamaytirishga olib keladi. Ana shu sabablarga ko‘ra, 1996-2016 yillar migratsiyaning yalpi hajmi dinamikasining tahlili qarayb ikki barobarga kamayganini kuzatish mumkin.

Shu bilan bir qatorda qishloq joylarda mahalliy aholining qishloq yo‘nalishi

tarmoqlaridagi bandligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilibgina qolmasdan, balki ishchi kuchi faoliyatining boshqa turlari va sotsial-maishiy infratuzilmalarning rivojlanishi ham ko‘zda tutilgan. Bu esa o‘z navbatida qishloqdan shaharlarga ko‘chishni kamaytirishga olib keladi.

### **3.2. Milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish.**

Qishloqdagi ortiqcha mehnat resurslarining shaharga tomon intilishi ham shahar yo‘nalishini to‘ldirib bordi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida yoshlarni bosqichma-bosqich bilim olishlarini tashkil etilgani, o‘rta-maxsus ta’limining ixtiyoriy-majburiylici ularni shaharlardagi litsey va kollejlarga o‘qishga chorlagani bilan izohlanadi. Ayni vaqtda oliy ta’lim qoshidagi litsey va kollejlarda professor-o‘qituvchilardan bilim olishga qiziqish, oliy ta’limda o‘qish va ishlab qolish jarayonlari ham vaqtinchalik shaharlarga migratsiyani kengaytiradi.

Respublikamizning barcha viloyatlarida bo‘lgani kabi Farg‘ona viloya-tida ham aholining qishloqdan shaharga tomon harakati doimiy amalga osh-gan. Natijada o‘rganilayotgan davrni yilma yil kuzatilganda barcha yillarda qishloq aholisining migratsiya qoldig‘i manfiy tusga ega bo‘lgan, shahar aholisi esa ko‘payib borgan, chunki shahardagi maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi hamda yashash sharoitlari anchagina ijobjiy jihatdan farq qilgan. Shu sababli qishloqdan shahar tomon aholini intilishi shahar aholisi orasida migratsiya harakatlarini yanada yuqorilab borishiga sabab bo‘lgan. Albatta, shahar bilan bog‘lanish qishloq aholisining ijtimoiy tarkibi, madaniy darajasi, bilim saviyasiga o‘zining ijobjiy ta’sirini ko‘rsatgan.

Barcha viloyatlarida shahar-qishloq yo‘nalishi doimiy kuzatiladi. Qishloqlarda yerlarni xususiylashtirish, tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish borasidagi islohotlar, aholiga tomorqalarning berilishi ularning qishloqqa intilishini oshirgan.

Migratsiyada qatnashayotgan aholining miqdor va sifat ko‘rsatkichla-rini aniqlashda, ularning yosh guruhlarinio‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni 1995-2016 yillar misolida o‘rganilganda vodiy aholisini migrantsion faoliyatida barcha yoshdagilarning harakati kuzatiladi. Ularni harakati

migratsiyaning manfiy qoldig‘ini hosil qilgan. Masalan, 1995 yilda vodiy hududlariga kelganlar migratsiya harakatlarining 41,6 foizini tashkil etgan. 2016 yilda ushbu yildan biroz farqlanib, kelganlar 4,7 foizga ortgan, ketganlar ham 3,1 foizga kamaygan. 1995 yilda migratsiyaning manfiy qoldig‘i –15074 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilda bu – 4279 kishiga teng bo‘lgan. Turli millat vakillarining o‘z yurtlariga ommaviy ko‘chib ketish jarayonlarini amalga oshirilishi dastlabki yillarda migratsiya ko‘rsatkichlarini yuqori darajada ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan. Sekin-asta ko‘chib ketuvchilar salmog‘i va xohishini kamayishi migratsiya jarayonlari ko‘rsatkichini pasayib borishiga olib keldi.

### **3.3. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida.**

Respublika aholisi tarkibida shaharlarni qishloq hududlariga nisbatan biroz farqlanishini kuzatish mumkin, ya’ni shaharlarda millat-larning etnik jihatdan boyligi va son jihatdan yuqoriligi saqlanib qolgan. Chunki shaharlarda sanoat korxonalarining mavjudligi turli mil-lat vakillarini o‘z bilim va tajribalarini namoyon etishiga sharoit yaratib kelgan. Masalan, birgina Farg‘ona shahrida 1991 yilda ruslar viloyat aholi-sining 32,0 foizidan iborat edi, yillar davomidagi migratsiya faoliyati natijasida 2016 yilda ularning ulushi 24,0 foizni tashkil etgan. Tumanlar ichida esa Oltiariqda ruslar nisbatan ko‘p bo‘lib, 1991 yilda ularning ulu-shi 1,4 foizni, 2016 yilda esa 1,7 foizni tashkil etgan. Ukrain, tatar, koreys, arman va yahudiy millatiga mansub aholining ham asosiy qismining ulushi shaharlarga to‘g‘ri kelganligi bois, urbanizatsiya jarayonlarining etnik xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan.

Mahalliy millatlarning harakatchanligi ijobiy bo‘lishi bilan birga rusiyzabon millatiga mansub aholi harakati ham o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lgan. Sobiq Ittifoqning parchalanishi oqibatida uning hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar mazkur millat vakillarining respublika, qolaversa vodiy hududlaridan ko‘chib ketishlarini biroz tezlashtirdi. Jumladan, 1995 yilda ruslarning aholi migratsiyasidagi ulushi 12,9 foizga teng bo‘lgani holda (mazkur hududdan ko‘chib

ketganlar) barcha rus millatiga mansub migrantlarning 24,1 foizi ko‘chib kelganlardan, 75,9 foizi ko‘chib ketganlardan iborat edi. Xuddi shunday holat ukrain, belorus, tatar, yahudiy millatiga mansub migrantlarda ham yaqqol kuzatiladi. Ruslar asosan shaharlarga kelib o‘rnashgani bois, ko‘chib ketuvchilarning asosiy qismi (96,9 foiz) shahar joylaridan bo‘lgan. O‘zbekistonning hozirgi hududi tabiiy-geografik sharoitga qarab tog‘li va tog‘ oldi zonasi, sug‘orma yerlar zonasi, bepoyon dasht-yaylov zonasiqishloq xo‘jaligi zonasiga bo‘linadi. O‘zbekistonning tog‘ va tog‘ oldi zonasi 20,5 foizni tashkil etadi

Milliy tarkibni migratsiyada qatnashuvi darajasi ularning hududlar-da joylashish salmog‘i bilan ham bog‘liq. Masalan, respublika, shuningdek vodiy hududlarida turli millat vakillari keng tarqalgan. Xususan, tojiklar respublika aholisi orasida nisbatan katta ulushga ega. 2016 yilda ularning hissasi 4,8 foiz bo‘lib, barcha viloyatlarda istiqomat qiladi. Asosan Surxondaryo (12,5 foiz), Samarqand (7,5 foiz), Namangan (8,9 foiz), Farg‘ona (5,9 foiz), Toshkent (5,3 foiz) va Qashqadaryo (4,4 foiz) viloyatlari aholisi tarkibida ushbu hududlardagi o‘zbeklardan boshqa vakillaridan boshqa millat vakillaridan ko‘proq bo‘lgan.

Qirg‘izlar respublika aholisining 0,9 foizini, vodiy aholisini esa 2,3 foizini tashkil etgan. Qirg‘iz millatiga mansub aholining 3/4 qismi vodiy viloyatlariga to‘g‘ri kelib, Andijon viloyati aholisining 3,7 foizini, Farg‘ona viloyati aholisining 2,0 foizini, Namangan viloyati aholisining 0,8 foizini tashkil etgan. Bugungi kunda qirg‘izlar Yangiqo‘rg‘on va Chortoq tumanlarida yirik areallar hosil qilgan holda, boshqa tumanlarda esa yakka holda yashaydi.

Andijon viloyatida qirg‘izlar va tojiklar asosan chegaraga tutash yoki yaqin qishloq tumanlarida, ayniqsa Qo‘rg‘ontepa, Xo‘jaobod, Buloqboshi, Marhamat, Asaka, Paxtaobod, Izboskan tumanlarida istiqomat qiladi. Tojiklar eng ko‘p Andijon shahrida istiqomat qiladi. Ularning ulushi shahar jami aholisining 14,1 foiziga teng bo‘lgan. Shuningdek, Asaka tumanida ko‘proq areal hosil qilib yashaydi, jami viloyatdagi tojiklarning 11,9 foizi, tuman aholisining 1,4 foizidan iborat bo‘lgan. Qo‘rg‘ontepa (10,2 foiz) tumanida ham tojiklar boshqa hududlarga

nisbatan ko‘proq edi. Qirg‘izlar Qo‘rg‘ontepa (10,4 foiz) va Shahrixon (10,1 foiz) tumanlarida ham nisbatan ko‘p yashagan.

Rusiyabon aholi ko‘proq shahar joylarda istiqomat qilgan. Ular o‘z mehnatlari bilan islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonlarida ishtirok etib kelmoqdalar. Lekin, o‘tgan yillarga nisbatan son jihatdan ushbu millat vakillari ancha qisqarib borgan. Ayni paytda rus millatiga mansub aholimiqdorining jami vodiy aholisi sonidagi ulushi 1991-2016 yillari 5,3 foizdan 1,1 foizga o‘zgargan. Aholi sonida ukrain, belorus, ozarbayjon, tatar, yevrey, nemis va boshqa-larni ulushining pasayib borishiga ularning migratsiyada ishtirokini yuqo-riligi va tug‘ilish darajasini pastligi sabab bo‘lgan. Rusiyabon millatlarini nisbatan sekin o‘sishi va aholi sonida salmog‘ining pasayib borishi ulardagi tabiiy o‘sishning sustligi va mexanik harakatining ustunligi bilan tavsiflanadi.

Respublikada mahalliy aholi orasida tug‘ilish darajasi rusiyabon xalqlaridan ancha yuqoriligi bilan ajralib turadi. Masalan, 2015 yil ma’lumotlariga ko‘ra, o‘zbeklarda tug‘ilish darajasi 25,4 promillega to‘g‘ri kelsa, qoraqalpoqlarda 25,2 promille, qozoqlarda 21,2 promille, tojiklarda 19,8 promille, qirg‘izlarda 19,1 promille, tashkil etgan. Ruslar, ukrainlar, beloruslar, tatarlar va boshqa millat vakillarida tug‘ilish darajasi ancha pastligi bilan farqlangan. Respublikada tug‘ilishning o‘rtacha darajasi o‘rganib chiqilganda eng past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan Toshkent shahri, Toshkent, Buxoro, Navoiy viloyatlarida ushbu millatlar ulushi ko‘proq edi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, aholining migratsiya harakatlarida mehnatga layoqatlilar ko‘p harakatchanligi bilan alohida xususiyat kasb etadi. 2016 yilda vodiy hududlariga kelganlarning 82,3 foizi, ketganlarning 91,4 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar hisoblangan. Mehnatga layoqatli aholidan kattalar esa jami kelganlarning 3,7 foizini, ketganlarning 5,8 foizini tashkil etgan.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Farg‘ona vodiysi aholisi respublikaning boshqa hududlari singari ko‘pmillatli xususiyatiga ega. 1991-2016 yillarda aholining umumiy o‘sishiga ta’sir etuvchi omillar sababli vodiy

aholisi sonida mahalliy millat vakillari, ayniqsa o‘zbeklar salmog‘i oshib borishi va ayrim millat vakillari ulushining kamayib borishi kuzatiladi. Shaharlardagi ko‘pmillatli tarkibni qishloqlarga nisbatan ustunligi urbanizatsiya jarayonlarini etnik xususiyatlarini o‘zida namoyon etgan.

Respublika hududlarida ko‘pmillatli tarkibni yuzaga kelishi tub aholining, qolaversa o‘zbeklarning qon-qoniga singib ketgan mehmondo‘stlik, qardoshlik, diniy bag‘rikenglik, millatlararo hamkorlik, birdamlik, do‘stlik,adolatlilik, tenglik kabi insonparvar xususiyatlar yanada amaliy ifodasini topdi, keng quloch yoydi va jahon miqyosida e’tirofga sazovor bo‘ldi.

Yillar davomida yurtimizda yashayotgan turli millat vakillari ushbu yurtni o‘z ona – Vatanlari bilib, unga sadoqatini namoyon etib kelmoqdalar. Albatta, tarix davomida majburan yoki ixtiyoriy ko‘chib kelgan millatlarni farzandlarining “kindik qoni to‘kilgan Vatan”i – bu O‘zbekiston sanaladi. Ular orasida rus millatiga mansub Farg‘ona shahar xalq maorifi direktori Gostyuxina Raisa Aleksandrovna faxr va g‘urur bilan, hayajonlangan holda: “Men Rossiyada emas, Ukrainada emas, Kavkazda yoki, Tojikistonda emas, aynan O‘zbekistonda istiqomat qilayotganidan nihoyatda baxtiyorman, deya ta’kidladi. Darhaqiqat, Farg‘ona viloyatida 84 ta turli millat vakillari do‘st va inoq hayot kechirayotgan bo‘lsa, ularning barchasi teng huquq va teng imkoniyatlarga ega ekanliklarini yaxshi bilishadi.

Migratsiya jarayonlarida reemigratsiya, ya’ni ko‘chib ketganlarni yana qaytib ko‘chib kelish harakatlari ham namoyon bo‘ladi.

Reemigrantlar o‘zlarining O‘zbekistonga qaytib kelib sabablarini quyidagilardan iborat deb ko‘rsatishgan:

–sotsial-iqtisodiy, maishiy muammolarning hal etilmaganligi (60,0 foiz);

MDH dagi ayrim (masalan, Ukraina) mamlakatlarida umumiy ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy holatning, ayniqsa ular joylashmoqchi bo‘lgan mintaqalardagi holatning beqarorligi (17,0 foiz);

–oilaviy muammolar: oila a’zolari bir qismining O‘zbekistondan ko‘chib ketishni xohlamaganligi (8,0 foiz);

- borgan joylardagi ish topish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar (6,0 foiz),
- sihat-salomatlik holati (2,0 foiz).

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonga qaytib kelganlarning 80,0 foizi, endi boshqa ko‘chib ketishni xohlamasliklarini aytishgan. Qaytib kelgan reemigrantlarni O‘zbekiston o‘zining barqaror sotsial – iqtisodiy holati bilan (52,2 foiz), millatlararo totuvlik va hamjihatligi (27,0 foiz) bilan o‘ziga jalb qilgan. Haqiqatda, mustaqillikning dastlabki yillarda ya’ni sobiq sho‘ro hududida keskin o‘zgarishlar ro‘y berib, beqarorlik hukm surayotgan bir sharoitda O‘zbekistonda tinchlik va barqarorlik saqlab qolindi va mashaqqatli dovonlar osha himoya qilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol yillarda respublikada aholining milliy tarkibida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Masalan, vodiya o‘zbeklar 1999 yilda 88,2 foizni, 2016 yilda esa 98,8 foizni tashkil etgan. Bunga sabab, o‘zbeklarda tug‘ilish darajasining nisbatan yuqoriligi, tug‘ilib o‘sgan vataniga bog‘lanib qolish xususiyati bo‘lsa, ikkinchi tomondan mustaqillik arafasida va mustaqillikning dastlabki yillarda boshqa millat vakillarining o‘z tarixiy vataniga qaytishi natijasida ular sonining kamayishi bo‘ldi.

Kuzatilayotgan davrning boshlarida turli millat vakillarining o‘z vatanlariga qaytish ehtiyojlari qondirilgach, ushbu migratsiya ko‘rinishlari pasaya boshladи. Darhaqiqat, migratsiya jarayonlarining keyingi ko‘rinishi mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq bo‘ldi. Ushbu ko‘rinishdagi migratsiya harakatlarida o‘zbeklar ko‘proq qatnashdilar. Natijada, 1995 yilda o‘zbeklarning migratsiya harakatlaridagi ulushi 67,9 foizdan iborat bo‘lsa, 2016 yilda 92,6 foizga yetdi.

Aholi sonida ukrain, belorus, ozarbayjon, tatar, yahudiy, nemis va boshqalarning ulushi ham pasayib borgan. Bunga, ulardagи migratsiyada qatnashishning yuqoriligi hamda yosh tarkibi bilan bog‘liq holda tug‘ilish, o‘lim darajalari sabab bo‘lgan.

2012-2016 yillar mobaynida O‘zbekistonga immigratsiya natijasida 750967 kishi ko‘chib kelgan bo‘lsa, emigratsiya miqdori 920594 kishi bo‘lib, ular xorijga yo‘l olgan. Tashqi migratsiya saldosи manfiy, ya’ni 169627 kishiga teng bo‘lgan bo‘lsa, shundan 6,5 foizi yoki 11,8 ming kishi Farg‘ona mintaqasiga to‘g‘ri keladi.

Migratsiya harakatlarida turli millat vakillarining ishtirokida mehnatga layoqatlilar salohiyati yuqori bo‘lgan. Bundan tashqari, migratsiya ishtirokchilari orasida turkman, qozoq, yahudiy, turk, uyg‘ur, belorus, boshqird, nemis kabi millat vakillarining ulushi 0,1 foizdan oshmagan.

Xulosa shuki, mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysi hududlarida yuz bergan migratsiya harakatlarida respublikada kuzatilgan holatlar bilan birga o‘ziga xos xususiyatlar ham namoyon bo‘lgan. Migratsiya jarayonlarining obyektiv sabablari quyidagilardan iborat:

–mustaqillikning dastlabki yillarida respublikada bo‘lgani singari vodiydagি migratsiya harakatlari asosan sobiq Ittifoq respublikalariga qaratildi, sovetlar mustamlakasi davrida majburan ko‘chirib keltirilgan turli millat vakillarining O‘zbekistondan o‘z tarixiy vatanlariga qaytib ketishi jarayoni yuz berdi ;

– vodiyda aholining migratsiyada ishtiroki turli bosqichlarda namoyon bo‘ldi: masalan, respublika miqiyosida, viloyat miqiyosida, viloyatlararo, chet davlatlar bilan bo‘lgan ichki va tashqi migratsiyalarni misol qilish mumkin;

–1991-2016 yillarda migratsiyaning umumiy hajmi, ya’ni qatnashayotganlar soni kamayib bordi;

–mustaqillikning dastlabki yillarida ko‘chib ketuvchilarning katta qismini professional tayyorgarlikka va yuqori malakali mutaxassislar tashkil etgan bo‘lib, ushbu holat sekin-asta kamayib borgani kuzatiladi;

– ishchi kuchi migratsiyasi aholining migratsiya harakatlarida asosiy mezon bo‘lib qolmoqda. Ishtirokchilarning asosiy qismi mehnatga layoqatli yoshdagи aholi, migratsiyaning asosiy harakatlari vaqtincha migratsiya tusini olgan, ular orasida 20-24 yosh guruhlarining faolligi boshqa yosh guruhlariga nisbatan ustun;

– Farg‘ona mintaqasida aholi migratsiyasi manfiy saldoga ega;

–oilalilarning harakatlari ustun, ular o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib, asosan mehnat migratsiyasida ishtirok etganligi bilan farqlanadi;

migrantlarning haq-huquqlarini himoya qilish uchun tashqi migratsiyani, xususan xorijiy mamlakatlarga xalqaro shartnoma asosida aholi migratsiyasini tashkil etish zarur;

bugungi kunda ayrim mamlakatlarda ishchi kuchiga bo‘lgan talabning ortishini hisobga olib, tashqi migratsiyani ularga ko‘paytirish kerak;

demografik vaziyatdan kelib chiqqan holda tashqi migratsiyani qo‘llab-quvvatlash va unga to‘g‘ri baho berish lozim. Ishchi kuchi migratsiyasining Farg‘ona vodiysi ijtimoiy-ma’naviy turmushiga ta’sirini turlichal talqin etish mumkin. Avvalo, mutaxassis sifatida o‘z ish joyiga ega bo‘lib, moddiy manfaatdorligi qondiriladi, ayrim kasbdagilar hatto, katta miqdordagi maoshga ham ega bo‘ladilar. Biroq, buning ikkinchi tomoni shuki, mutaxassis o‘z yurtida ham zarur soha vakili bo‘lgani holda, o‘zga yurtga ketib qolganligini salbiy holat, deb baholash mumkin. Shu bilan birga, yurt sog‘inchi, musofirchilik mashaqqatlari, oilaviy masalalar, ayniqsa, ota yoki onaning xorijga ketishi farzandlar tarbiyasiga ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Ishchi migratsiyalarning demografik jarayonlari oilaviy turmush sharoitlar hamda axolining ayollar va erkaklar soni o‘rtasida nomutanosibliklarni keltirib chiqarmoqda.

Agar viloyatlar kesimida olinsa, respublika miqyosida yetakchi o‘rinda Xorazm va Buxoro viloyatlarini misol qilib keltirish mumkin. Farg‘ona vodiysida yangi tashkil etilayotgan sanoat korxonalari va qo‘shma korxonalar aholi bandligini ta’minalashga xizmat qilmoqda. Bunday holati o‘zbek millatidan tashqari, boshqa millat vakillari hayotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada ko‘rilgan amaliy chorralarga qaramasdan, haligacha respublikada og‘ir turmush sharoitida yashab, ish bilan ta’minalmagan 13 mingdan ziyod xotin-qizlar borligi achinarlidir. Shu munosabat bilan Prezident Murojaatnomasida belgilab qo‘yildiki, 2019 yilda turmush sharoiti og‘ir bo‘lgan 1 ming 600 nafar xotin-qizlarni imtiyozli kreditlar asosida arzon uy-joylar bilan ta’minalash vazifasi topshirildi. Bu esa, xotin qizlar o‘rtasida tashqi migratsiyaning oldini olishda ham muhim ahmiyatga ega, deyish mumkin.

### **Nazorat savollari va test topshiriqlari:**

1. O‘zbekiston aholisi soni qancha va oxirgi yillarda O‘zbekiston aholisi soni qanchaga ko‘paydi?
2. Tabiiy ko‘payish va mexanik ko‘payish tushunchalarini izohlang.
3. Aholi migratsiyasi deganda nimani tushunasiz?
4. Aholining yosh va jinsiy tarkibi qanday ko‘rsatkichlarga ega?
5. O‘zbekiston aholisining qancha qismi qishloqlarda istiqomat qiladi?
6. O‘zbekiston aholisi xalq xo‘jaligining qaysi sohlarida eng ko‘p band?

**4-mavzu: 4-mavzu: Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor sifatida. (2 soat)**

REJA:

1. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarining omillari
2. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanishning ilmiy uslublari hamda yo‘llari.

**Tayanch so‘zlar:** Mehnat resurslari, jarayonlarini o‘rganish, ilmiy tadqiqotlar, Mehnat resurslari joylashuvi, ilmiy uslublar, tadqiqotlar obe’kti.

**4.1. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarining omillari**

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardanoq aholini ijtimoiy himoya qilishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab oldi. Olib borilayotgan islohotlarning avvalo, aholi manfaatlariga xizmat qilishining isboti deb baholash mumkin. Jahonda e’tirof etilgan O‘zbekistondagi yangilanish va taraqqiyot yo‘lining asosiy qoidalaridan biri – bozor iqtisodiyotiga o‘tishning besh tamoyilning aynan biri ham kuchli ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgan. Mazkur tamoyil ijtimoiy vazifalarni hal etishga, aholini ijtimoiy himoyalash sohasida qat’iy kafolatni vujudga keltirishga yo‘naltirilgan ekan, bozor islohotlarini chuqurlashtirishning milliy modeli asosidagi iqtisodiy siyosatda inson manfaatlarini himoya qilish, aholining turmush farovonligini oshirish, kam ta’minlangan qismini ijtimoiy himoyalash, nogironlar, pensionerlar, yolg‘iz qariyalar, yosh bolali ayollarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamisha dolzarb bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-son

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, “Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta’lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish–bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir”. Ana shu maqsadda, 1997 yildan e’tiboran har yili ijtimoiy himoya tizimiga ajratiladigan saramoyalarning ko‘lami ortib bormoqda. Jumladan, 1997 yildan boshlab har bir yilga tegishli ravishda inson baxt-saodati va uning farovonligiga xizmat qiladigan nomlarning berilishi va maxsus Davlat dasturlarning qabul qilinib, amaliyotga joriy etilganligi, mavjud ijtimoiy muammolarni hal qilish va bunga jamoatchilikni jalb etishda o‘zining ijobiy samarasini berib kelmoqda.

Mustaqillikka erishilgach, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta’midot vazirligi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 30 sentabrdagi 476-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta’midot vazirligi to‘g‘risidagi Nizomi tasdiqlandi, uning asosiy vazifasi etib, jumladan, mehnatga layoqatsiz aholining ijtimoiy ta’moti va ularga ijtimoiy yordam berish sohasida davlat siyosatini shakllantirish, keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, pensiyalar va nafaqalar to‘lashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sug‘urta mablag‘laridan samarali foydalanish, pensiyalar va nafaqalar to‘lash ishlarini tashkil etish, keksa fuqarolar, nogironlar, voyaga yetmagan bolalari bo‘lgan oilalarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko‘rsatish, imtiyozlar, sanatoriya-kurortda davolanish yo‘llanmalarini va harakat qilishning maxsus vositalarini berishni tashkil etishsh, davolash mehnat va tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmatiga, nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklash bo‘yicha ishlarini

amalga oshirish, nogironlarga hunar o‘rgatish va ularni qayta o‘qitish belgilandi.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun avvalo, aholi daromadlarining eng kam va o‘rtacha darajasi muntazam oshirib borildi. So‘ngra, ichki iste’mol bozorini himoya qilish, oziq-ovqat mahsulotlari asosiy turlari iste’molini muayyan darajada saqlab turish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rildi, pensionerlar, nogironlar, ehtiyojmand aholi, ko‘p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlarni ijtimoiy himoyalash bo‘yicha amaliy choralar ko‘rildi.

2001 yilda fuqarolar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)ga bo‘lgan murojaatlarning 10,3 foizi ijtimoiy muhofaza masalalari bilan bog‘liq bo‘lganligi, bu masalaning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi.

2007 yil 23 yanvardagi “Ijtimoiy himoya yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Qarorida amaldagi ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini yanada oshirish, ijtimoiy nochor fuqarolarga tabaqlashgan holda yondashuvni kuchaytirish, yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish, amaldagi qonun hujjatlariga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish kerakligi belgilab berildi. Masalan, 2006 yilda budjet mablag‘larining 51,9 foizi, 2007 yil – “Ijtimoiy himoya yili “Davlat dasturi doirasida aholining ijtimoiy himoyasiga 484 mlrd. so‘mdan ortiq (53,8%), “Yoshlar yili” da 1,5 trln. so‘mdan ortiq(54,6%), “Barkamol avlod yili” doirasida 1 trln. 700 mlrd so‘m, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” yilida 2 trln so‘m miqdoridagi mablag‘ ajratildi.

2016 yil – “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi doirasida bolalar sportini rivojlantirish, yosh oilalar, tadbirkor ayollar, kollej bitiruvchilari, oilaviy biznes va hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash va boshqa shu kabi maqsadlar uchun barcha manbalar hisobidan 7 trln 480 mlrd so‘m va 190 mln \$ ziyod mablag‘ sarflandi. Davlat mablag‘larining 59,1 foizi ijtimoiy sohaga yo‘naltirilishi nazarda tutilgan edi, jumladan, ta’lim-tarbiya sohasiga davlat budjeti xarajatlarining 33,7 foizi, sog‘liqni saqlash tizimiga 14 foizi yo‘naltirildi. Ta’lim-tarbiya sohasini ta’minalash va rivojlantirish sarf-xarajatlari o‘tgan yilga qaraganda 16,3 foizga, sog‘liqni saqlash tizimida 16 foizga ko‘paydi. Ko‘rinib turibdiki, aholining

ijtimoiy himoyasiga yo‘naltirilgan mablag‘larning miqdori yildan- yilga ortib bormoqda va bu boshqa sohalarga qaraganda miqdori ancha katta.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq aholining kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini moddiy qo‘llab quvvatlashning qonunchilik tizimi yaratildi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida: “Har bir shaxs qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, boquvchisidan ayrilganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda davlat ijtimoiy taminotini olishga haqli” deb belgilangan bo‘lib, ushbu tamoyil hukumat tomonidan amalga oshirilgan aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarda o‘z ifodasini topdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida aho lining kayfiyatidagi ayrim muammolarni ham hal etish zarurati tug‘ildi. Jumladan, sovet davridan saqlanib qolgan boqimandalik, o‘zibo‘larchilik kabi illatlarni bartaraf etish, ularning ongiga singib ketgan “umummanfaatchilik”, “bir tekischilik” kabi tushunchalardan xolos etish lozim edi.

Ana shularni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya qilish pensiya, ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy himoyaning bir ko‘rinishi sifatida pensiya 3 xil toifadagi fuqarolarga beriladi:

-Yoshga doir

-Nogironlik

-Boquvchisini yo‘qotganligi munosabati bilan beriladigan pensiya sifatida ta’minlanadi.

-Yuzaga kelgan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyatdan kelib chiqqan holda, Respublika aholisining tarkibiga ham e’tibor kuchaytirilib, aholi tarkibiy sifatining asosiy tasniflari quyidagi omillarda belgilandi:

-aholi salomatligi darajasi;

-bolalar, onalar o‘limi va umumiy o‘lim darajasi;

-aholi umrining o‘rtacha davomiyligi;

-aholining ma’lumot darajasi;

- aholining ijtimoiy tarkibi;
- aholining urbanizatsiyalashganlik darajasi;
- umuminsoniy qadriyatlarga munosabat.

Respublika hukumati tomonidan ko‘rilgan choralar natijasida islohotlarning dastlabki bosqichida aholi turmush darajasining butunlay pasayib ketishining oldini olishga erishildi. Bu borada davlat siyosati ijtimoiy keskinlikni yumshatish maqsadidan kelib chiqib, shakllantirildi. Oziq-ovqat tovarlarini meyorlashtirilgan holda sotish kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi. Muammolarni hal etishga davlat siyosati darajasida, aholi ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilindi. Hukumat tomonidan 1991 yilning noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta’milot vazirligiga tegishli holatni bir oy muddatda chuqur tahlil etish va bu sohani rivojlantirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi berildi. Pensiya ta’miloti ishida islohotlar o‘tkazish, kam ta’minlangan oilalar, nogironlar ustidan g‘amxo‘rlik qilish vazifalari belgilandi. Avvalo, aholining eng kam daromadli tabaqalari, ya’ni: nogironlar, pensionerlar, ko‘p bolali va kam ta’minlangan oilalar, vaqtincha ishsiz kishilar, umuman qiyin ahvolga tushib qolgan insonlarga yaqindan yordam ko‘rsatish ijtimoiy himoyalash tizimining asosi bo‘lib, shu maksadda aholining mazkur toifalari uchun kundalik zarur mollarni sotib olishda, kommunal va transport xizmatiga haq to‘lashda qo‘srimcha imtiyozlar joriy etildi. 16 yoshgacha bo‘lgan bolalarga nafaqa to‘lash tizimi amal qilinib, ikki yoshgacha bo‘lgan go‘daklar hamda kamqonlik kasaliga uchragan homilador ayollarning bepul ovqatlanishi tashkil etildi. Maktablarda boshlang‘ich sinflarning o‘quvchilariga bepul nonushta berildi. Tinglovchilar uchun tushlik ovqati qiymatining 50 foizi chegirib tashlandi. Shuningdek, respublika viloyatlaridan kelgan tinglovchilar uchun 50 so‘mdan qo‘srimcha mablag‘ ajratildi.

1993 yil 3 sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’miloti to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinib, 1994 yil 1 iyuldan kuchga kirdi. Qonunga asosan, faqat ish stoji mavjud bo‘lgan shaxslargagina pensiyalar tayinlanishi belgilangan. Bu pensiyalar yoshga doir, nogironlik va boquvchisini

yo‘qotganlik pensiyalaridir.

1994 yil 1 iyuldan milliy valyuta (so‘m) kuchga kirdi. Ma’lumki milliy valyutadan oldin so‘m-kupon O‘zbekiston pul birligi sifatida muomalada bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 15 noyabrdan “O‘zbekiston Respublikasi hududida parallel to‘lov vositasi sifatida so‘m-kuponlarni joriy qilish to‘g‘risida”gi 1993 yil 12 noyabrdagi 550-son qarori bilan ichki bozorni ortiqcha rubl omboridan, shuningdek, aholiga pul mablag‘larini o‘z vaqtida to‘lashni ta’minalash, so‘mning qo‘sishimcha banknotalari joriy etildi va 1994 yil iyul oyiga qadar amalda qo‘llanildi. Biroq , 1994 yil 1 avgustgacha ular 1000 so‘mlik kupon = 1 so‘m miqdorida cheklovlarsiz barcha turdagи to‘lov larga qabul qilingan.

1996 yil 4 dekabrdagi “Bolali oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to‘g‘risida”gi PF-1657-son Farmonga muvofiq ravishda 16 yoshga to‘lmagan bolalari bo‘lgan muhtoj oilalarga nafaqa tayinlash va tabaqalashtirilgan (oiladagi bolalar soniga bog‘liq ravishda) holda to‘lash haqidagi qoidalar tasdiqlandi. Shuningdek, 1997 yil yanvardan boshlab, bolali oilalarga nafaqalar fuqarolarning o‘zini - o‘zi boshqarish organlari, ya’ni mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan tayinlanishi, bunda oilalarning shunday nafaqaga muhtojligi hisobga olinishi hamda 1 nafar bolali oilaga 100 foiz, 3 nafar bolali oilaga 140 foiz, 4 nafar va undan ortiq bolali oilalarga 175 foiz miqdorida nafaqa to‘lanishi belgilab qo‘yildi.

Aholini ijtimoiy himoyalash masalalari ijtimoiy ta’minot organlari bilan birga Mehnat, Moliya, Sog‘liqni saqlash, Aloqa vazirliklari, Pensiya Jamg‘armasiga hamda jamoat tashkilotlari bo‘lgan Ko‘zi ojizlar, Kar-soqovlar, Nogironlar, Qizil Yarimoy jamiyatlari, “Mehribonlik”, “Bolalar”, “Navro‘z”, “Sog‘lom avlod uchun” kabi xayriya jamg‘armalariga ham yuklatilgandir. Natijada, kam ta’minlangan, yordamga muhtoj aholi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ularga har tomonlama g‘amxo‘rlik ko‘rsatish choralari ko‘rildi. Pirovardida, bozor mexanizmini joriy etishdan avval odamlarni ijtimoiy va huquqiy himoyalash bo‘yicha kuchli ehtiyyot choralari oldindan ko‘rib qo‘yilishi

obyektiv zarurat ekanligi hayotda o‘z isbotini topdi.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonning demografik siyosati ona va bola sog‘ligini mustahkamlash maqsadida tug‘ilishni tartibga solishga qaratil-gan. Bunda tug‘ilishni sonini kamaytirishga hatto ishora ham yo‘q. So‘z faqat tug‘ilishni tartibga solish madaniyati haqida borishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti bu haqda quyidagi fikrlarni bildirgan: – Oilada qancha bola bo‘ladi – buni ota-onaning o‘zi hal qiladi. Har kim o‘zi aql bilan o‘ylab, salomatlikni, imkoniyatni hisobga olib xulosa chiqarsin. Faqat bitta sharti bor – tug‘ilgan bola sog‘lom o‘sxin, ulg‘ayib voyaga yetgach, jamiyatimizning barkamol a’zosi bo‘lsin, yangi qurila-digan oiladan yanada sog‘lomroq avlod bunyodga kelsin. Zero, mustaqillik yillarida onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish yo‘lidagi ijobiy ishlar natijasida tug‘ish yoshidagi ayollar va go‘daklar hayoti bilan bog‘liq noxush holatlar kamaytirildi. Ayniqsa, inson sog‘ligi, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirishga doir normativ hujjatlarni hayotga tadbiq etilishi, aholini ijtimoiy himoya qilishning amaldagi ifodasi ekanligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy himoya masalasi kun tartibida eng dolzarb bo‘lib, bu borada katta ishlar amalga oshirildi. Sog‘lom avloddangina sog‘lom farzand dunyoga keladi. Olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasiga ko‘ra ayol kishi qanchalik ko‘p va tez-tez farzand ko‘rishi uning turli xil kasalliklarga chalinishiga sabab bo‘lishi, homiladorlikning asoratlar bilan kechishi, natijada chala tug‘ish, og‘ir tug‘ruqni boshdan kechirish, chaqaloqning nobud bo‘lishi, umrbod nogironlik kabi holatlar ro‘y beradi. Aholi orasida tibbiy madaniyatni oshirish ayollarning sog‘-salomat bo‘lishlari, homiladorlik, tug‘ruq jarayonlarini asoratsiz o‘tkazishlari va sog‘lom bolalarni dunyoga keltirishlari uchun zamin yaratadi.

Respublikaning mustaqillik yillaridagi demografik tarixida ayollarni reproduktiv yoshining o‘zgarib borishi ham ona va bola salomatligida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi viloyatlarida 2003 yilda 1996 yilga nisbatan 15-19 yosh (5,4 marta), 20-24 (1,4 marta), 25-29 (1,2 marta), 30-34 (1,3 marta), 36-39 (1,5 marta), 40-44 (1,7 marta), 45-49 (3,1 marta) yosh

bosqichlari bo'yicha ayollarda tug'ish ko'rsatkichlari kamaygan. Mintaqalarda ayollarida tug'ish ko'rsatkichi 15-19 va 45-49 yoshlarga to'g'ri kelgan. 20 yoshdan to 49 yoshgacha bo'lgan ayollardagi tug'ish ko'rsatkichlari bosqichmabosqich kamayib, oilalarda beshinchi, oltinchi va undan keyingi farzandlarning tug'ilishi kamaygan( Izoh: yosh tarkibiga ko'ra har 1000 nafar ayolga nisbatan tirik tug'ilganlar). 1996 yilda 20-24 yoshgacha bo'lgan ayollar orasida tug'ish (266,18) nisbatan yuqori bo'lgan. Undan keyingi daraja 25-29 yoshdagi (186,05) ayollarga to'g'ri kelgan. Tug'ish ko'rsatkichining uchinchi darajasi 30-34 yoshdagi (93,05) ayollarda kuzatiladi. 15-19 yoshdagi ayollar farzand ko'rish darajasi bo'yicha to'rtinchi o'rinda bo'lgan. Bunday natijalarga erishishda, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ona sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom farzand tug'ilishi, "Sog'lom ona – sog'lom bola" maqsadli vazifalarini amalga oshirish uchun joylarda viloyat hokimlari farmoyishlari asosida tashkil etilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1996 yildan 2003 yilgacha bo'lgan davr oralig'ida birinchi va uchinchi farzand ko'rganlar soni yilma-yil ortib borgan. To'rtinchi, beshinchi va un-dan ko'p farzand ko'rganlar ulushi esa kamaygan. Natijada vodiyda uchinchi farzand ko'rgan ayollarning ulushi nisbatan yuqoriroq, yani 7,1 foizga, bi-rinchi farzand ko'rganlarning ulushi esa 1,8 foizga ortgani aniqlandi. Ayol-larda farzand ko'rishning to'rtinchi bolalar tug'ilishida 0,3 foizga, beshin-chi va undan yuqori bolalar tug'ilishida 1,6 foizga kamaygan. Demak, nafaqat beshinchi, balki to'rtinchi farzand ko'rish darajasida ham kamayish yuz bergen.

2011 yilga kelib, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining "O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida" gi buyrug'iga asosan ijtimoiy xizmat xodimlarining asosiy vazifalari tizimi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, ijtimoiy xizmat xodimlari tomonidan nogironlarni zarur oziq-ovqat mahsulotlarini uyiga yetkazib berish, kiyimlari va uy anjomlarini tozalab berish, tibbiy yordam ko'rsatish kabi vazifalar yuklangan va ular aholining ishsiz qatlamidan saralab olinadi. 2011 yil 30 maydagi "2011-2015 yillarda

yolg‘iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, viloyatlaridagi Nogironlar uchun hududiy reabilitatsiya markazlari davolash korpuslari qayta ta’mirlandi.

Ijtimoiy himoyani kuchaytirish, ijtimoiy qo‘llab - quvvatlashga ehtiyojmand aholi qatlamlarining turmush darajasini va sifatini yuksaltirish, 2008-2013 yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini qo‘llab-quvvatlashga 135 dan ortiq loyiha uchun 1 mld 614,5 mln so‘mdan ortiq mablag‘lar yo‘naltirilgan. Natijada, himoyaga muhtoj bo‘lgan jismoniy imkoniyati cheklangan fuqarolarga va yolg‘iz pensionerlarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, tibbiy-ortopedik mahsulotlar, reabilitatsiya texnik vositalarini ishlab chiqarish, ijtimoiy tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi.

#### **4.2. Mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanishning ilmiy uslublari hamda yo‘llari.**

Mutaxassislarining fikricha, o‘zbek oilalarida bola soniga va tarbiyasiga bo‘lgan munosabatlar, ota-onalarning farzandlari orasidagi ruhiy-emotsional munosabatlarning anchayin o‘zgarib, oilada farzandlar soniga bo‘lgan munosabatlarda, bolalarning o‘rtacha soni kamayishida, ota-onaning oiladagi an’anaviy o‘rni va vazifalari birmuncha transformatsiyaga uch-raganlikda, bola tarbiyasida oila a’zolarining ishtiroki va mas’uliyat darajasi kuchayganlini kuzatish mumkin.

Respublikada istiqomat qiladigan har bir ayol hamda barcha katta yoshdagidan oila a’zolari doimiy tibbiy nazorat qilib borilganda, nafaqat tug‘ma nuqsonli, chala va kichik vaznli bolalar tug‘ilishini oldi olinadi, balki farzandlarning barkamol o‘sishini ta’minalash imkoniyatini yaratadi. Shunday ekan, homiladorlik, tug‘ruq va undan keyingi jarayonlarni doimo nazoratini ta’minalash, davolash va sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini ko‘rish, tibbiy-ijtimoiy tadbirlarni yanada kengaytirish shu kunning muhim vazifasidir.

Oilalar uch turga bo‘linadi: kam bolali, o‘rta bolali va ko‘p bolali. Bir yoki

ikki farzandlari bor oilalar kam bolali oilalar deyilsa, uch va to‘rt farzandlari bor oilalar o‘rtacha bolali oilalar tarkibiga kiradi. Besh va undan ko‘p farzandli oilalar esa ko‘p bolali oilalar hisoblanadi.

